

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

COMPARATIVE ANALYSIS OF WOODEN STRUCTURES USED IN HISTORICAL MOSQUES IN SAMARKAND CITY

Ph.D, katta o'ituvchi, Samarqand davlat arxitektura-qurilish
universiteti, Samarqand shahar
Jurayeva Elvira Elmuradovna

dotsent v.b, Samarqand davlat arxitektura-qurilish
universiteti, Samarqand shahar
Zubaydullayev Ulug'bek Ziyadullayevich

SamDAQU talabasi, Samarqand davlat arxitektura-qurilish
universiteti, Samarqand shahar
Mardonova Manzura

SamDAQU talabasi, Samarqand davlat arxitektura-qurilish
universiteti, Samarqand shahar
Murodova Zebiniso

Annotation: This article presents a comparative analysis of wooden devices used in mosques such as Makhdumi Azam, Hazrat Khizir, Khuja Ahror Vali, and Khuja Abduberun from the historical mosques of Samarkand, exquisite decorations on columns and their preparation processes, the use of column-beam devices and the architecture of historical monuments. The uniqueness of wood materials is widely explained.

Keywords: mosque, dome, portico, porch, column, minaret, wood, pattern, bouquet, column-beam, device.

Kirish Ustunli-to'sinli qurilmalarga asoslanga Qadimgi YUnon va Rim orderlari jahon arxitekturashunoslik faniga ma'lum va mashhurdir. Ular ustida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilib, qator kitoblari va uslubiy qo'llanmalar yaratilgan. Biroq, afsuskiy, O'rta Osiyo arxitekturasiga xos ustunli -tusinli qurilmalarni o'rganish nafaqat respublikamizda, balki Markaziy Osiyo mintaqasida ham shu choqqacha yaxshi yulga qo'yilmagan. Amaliyotda esa bunday an'anaviy qurilmalarni qullash tajribalari me'morlar va arxitektorlar orasida avloddan-avlodga meros tarzda o'tib kelgan. Anashunday tarixiy yodgorliklarimizda saqlanib kelayotgan yog'och qurilmalarini bir nechtasini taxlil qilib chiqamiz.



Oqdaryo tumanining Dahbed qo'rg'onida joylashgan "Maxdumi A'zam" jome masjidi YAlangtush Bahodir tomonidan 1618 yili qurdirilgan va o'z zamonasining madaniy markazlaridan hisoblangan.

Masjid nomi zamonasining buyuk allomalaridan biri mutafakkir hazrati Maxdumi A'zam nomi bilan bog'liqdir. Asl nomi Sayyid Ahmad Xoja Kosoniy taxminan 1463-64 yili Farg'ona vodiysining Kosonsoy shahrida dunyoga kelgan. O'z yurtida va Toshkentda ilm olib kamolotga erishgandan keyin shayboniy xukmdorlaridan Jonibek Sultonning taklifiga binoan Samarqandning Miyonqol vohasiga ko'chirib keltirishgan.



1-rasm masjidning ichki ko'rinishi

U kishi kelganidan keyin bu vohani obodonlashtirib o'n tup tol ekadi. Keyinchalik bu joy o'n tolga nisbat berilib "dahbed" degan nom oladi. Maxdumi A'zam hazratlari 30 dan ortiq asarlar muallifi, Naqshbandiy tariqatining bilimdoni bo'lib, shayx maqomiga erishgan. O'z davrida yuzlab shogirdlarini tarbiyalagan Maxdumi A'zam hazratlari 1542 yil Dahbedda vafot etadi. Maxdumi A'zam hazratlarining qo'nim topgan joyiga ko'plab allomalar dafn kilingan bo'lib, bugungi kunda tashrif bayuruvchilar bilan gavjum ziyoratgohdir.

Samarqandning hokimi Baxodir YAlangtush bu zotning abadiy qunim topgan joylarini obod qilish maqsadida 1618 yilda masjid va dahma qurdirganlar.

Masjid jomiy masjidi xisoblanib masjidda 14 ta gumbaz hamda masjid ayvonida 14 ta yog'och ustunlar mavjud .Ikki qator ustunlar, har bir qatorda 7 tadan

2-rasm 17-asrdan saqlangan yagona ustun

joylashgan bo'lib ularning balandligi 11,5 metrni tashkil qiladi. Ustunlar oraliq masofasi qatorlar oralig'i eniga 3,60 buyiga 2,85metrni tashkil qiladi. Baxodir YAlangtush tamonidan qurdirilgan ustunlardan xozirgi kunda yagona ustun saqlanib qolgan ya'niy 1618 –yilda quyilgan ustunlardan 1tasi bugungi kunda ham masjid ko'rkiga ko'rk qushib kelmoqda.



2-rasm masjid ustunlarining xozirgi ko'rinishi

Ustunlarning diametiri har xil ulchamda bo'lib ularning eng yirigi ayvon markazida joylashgan bo'lib uning diametiri 1,58 smni tashkil qiladi. YOg'och ustunlarni namdan saqlash uchun u toshdan ishlangan poyko'rsiga o'rnatilgan.

Samarqanddagi yana bir ma'lumu mashhur bo'lgan majmua Xoja AhrorValie masjid madrasasidir. XV asrga mansub me'moriy yodgorliklardan biri. U madrasa, masjid va minora hamda hovuzdan iborat. Madrasa 1630-1631 yillarda Nodir Devonbegi mablag'i hisobiga qurilgan. Xoja Ahror Valiy o'z zamonlarida butun Movarounnahr va Xurosonda mashhur shaxs bo'lgan. Juda katta er-suv, mol-mulkka ega bo'lib, butun umri, kuch-g'ayrati va bor mol-mulkini yurt tinchligi, obodligi yo'lida sarflagan. Natijada mamlakatning ichki va tashqi siyosiy hayotida etakchi o'rin tutgan. Xoja Ahror Valiy oddiy fuqaro ham, akobir ham o'zlariga birday pushtipanoh deb bilar edi. Xalqparvar, din va siyosat arbobi Xoja Ahror Valiy 1404 yili qadim SHoshning (Toshkent) Bog'iston qishlog'ida tug'ilib, 1490 yili Samarqandda vafot qilgan. Tasavvufga oid bir qancha asarlar yozgan. Uning "Risolayi volidiya" asari xalq ichida mashhur bo'lgan.



3-rasm Xoja Ahror Valiy masjid madrasaining tashqi ko'rinishi

XV asrning ikkinchi yarmiga kelib Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotda Xoja Ahror yuksak mavqeyga ega bo'ladi va nihoyatda mo'tabar siymolardan biriga aylanadi. Abu Toxir Xoja o'zining «Samariya» asarida yozishicha, Xoja Ahror ilm ahlini e'zozlar, anjumani hamisha olimlar bilan to'la edi. Binobarin, u ilm ahli uchun Samarqandda bir madrasa qurirdi. Bu madrasa «Madrasai safed (oq)» nomi bilan mashhurdir. Bundan tashqari Toshkent va Qobulda ham madrasalar qurdirgan.

Xoja Axror Valiy masjidi bir necha ochiq va yopiq ayvonlardan iborat bo'lib, ayvonlarda bir birini takrorlamas bejirim bezaklari bilan kishini o'ziga lol qiladegan ustunlar masjid ko'rkiga ko'rk ko'shib kelmoqda. Masjidda bugungi kunda 3ta ochiq ayvon va bitta yopiq ayvon namozxonlar uchun xizmat qilib kelmoqda. Masjidning birinchi ayvonida 4 ta ustunlar joylashgan ayvonning peshtoq qismida joylashgan 2 ta ustunlar uyma naqishlar xamda tepa qismida muqarnas kallak qismi uzgacha bezaklar bilan bezatilgan.



4-Rasm majid ayvonlarida qullanilgan yog'och ustunlar

Ayvonning ung tomonidan kiraverishda yopiq ayvonli masjidga kiriladi ikkala tomonida ochiq ayvonli bu masjidning oldi tomoni ham yopiq ayvon bo'lib yon tomonidagi ayvonlardan eshiklar orqali kiriladi bu ayvonda 4 ta yog'och ustunlarni ko'rishimiz mumkin. Turtala ustun xam ulchamlari bir xil bo'lib ortiqcha bezaklarsiz oddiygina yog'och ustunlardan iborat. Ustunlar oraliq masofasi 3,60 smni tashkil qiladi. Diametiri 1,27 smdan iborat bo'lib bu ustunlar ulchami bir xil. Kiengi ayvon katta ayvon xisoblanib ayvon 6 ta ustun va kayvoni bilan boshqa ayvonlardan ajralib turadi bu ayvonda qullanilgan ustunlar bejirim bezaklari uymakor naqshlar, va rang –barangligi bilan kishini o'ziga rom qiladi. Bu ayvon boshqa ayvonlarga nisbatan balandroq va ustunlar anchagina ulg'vor ko'rinishga ega. Ayvonning oldi qismiga o'rnatilgan 2ta ustunlarga o'zgacha ishlov berilgan bo'lib xajim jixatdan xam qolgan ustunlardan ancha katta va ko'rkam ko'rinishga ega. Qolgan 4 tala ustun oddiy ortiqcha bezaklarsiz ishlangan. Ustun oraliq ulchamlari eniga 4,60sm uzunasiga 5,50 smni tashkil etadi. Ayvonning peshtoq qismidagi 2 ta ustuning diametri 2,7sm qolgan 4 ta ustunlarning diametri 1,36 sm ni tashkil qiladi, hamma ustunlarda tepaga qarab kichrayish borligi sababli kurkam ko'rinishga egadir. Oxirgi ayvonda 2ta yog'och ustunlarni ko'rishimiz mumkin ustun oraliq masofasi 5,93sm. Bu ustunlar ham muqarnasli ustunlar bo'lib ustunlar tut daraxtidan ishlangan bu ustunlarning boshqalaridan farqi nixoyatda nozik did bilan ishlangan bo'lib ustunlarning butun boshli tanasi uyma naqishlar bilan bezatilgan va muqarnasda ham bejirim halqa naqishlar bilan bezatilgan ustunlarni namlikdan saqlash maqsadida miramirdan ishlangan poy ko'rsilarga o'rnatilgan. Ayvonning tepa qismida ham bejirim naqshlar bilan bezatilganing guvoxi bo'lasiz.



5-rasm Masjidning shift qismida qullanilgan yog'och qurlmalar.

Xo'ja Abdu Berun jome masjidi Samarqand viloyati, Samarqand tumani, Sarimozor mahallasida joylashgan qadimiy, ziyoratgoh masjidlardan biridir.

Masjid qurilishi tarixi olis o'tmishga borib taqaladi. U 1159 yil Sulton Sanjar Moziy tomonidan qurilgan.

Masjid nomi nisbat berilgan Xo'ja Abdu Berun (Muhammad Said ibn Usmon Ibn Poy brahna) nafaqat Samarqandda balki, O'rta Osiyoda ilk fiqxshunoslik, Qozi kalon va mutasavvuf allomalaridandir. Manbalarga qaraganda Xo'ja Abdu Berun Quraysh arablarining "Abduh" qabilasiga mansub bo'lib nasl-nasablari choryorlarning uchinchi xalifasi bo'lmish Usmon ibn Affonga borib taqaladi. Bul zoti muazzamning maqbaralari Samarqandning qadimiy devori – Devori qiyomatning tashqari (tojikcha - berun) tomonida joylashgani uchun Abdu Berun laqabini olganlar.



6-rasm Xoja Abdu Berun masjidining fasadi

Xo'ja Abdu Berun hazratlari Samarqandda qozi bo'lib ishlagan u kishining mashhur ug'li Xo'ja Abdu Darun bo'lib ularning har biri ham fiqh va tasavvuf allomalari edilar. Xo'ja Abdu Berun maqbara daxmasi va xonakohi dastavval Sulton Sanjar Moziy 1086-1126 va Temuriy Ulug'bek Mirzo 1394-1449 va keyingacha 17-asrda Ashtarxoniylar podshoxi bo'lmish Imom-Qulixonning nufuzli saroy a'yoni va tog'asi Nodir Devonbegi tomonidan qayta ta'mirlangan.

Hozirgi masjid hovlisida hovuz va ulkan chinor daraxti mavjud. CHinor mutaxassislarining tavsifi bo'yicha 723 yoshdaligi aniqlandi. Masjidning maqbara qismida joylashgan chillaxonada bir qancha ulamolar zikru tahlil bilan mashg'ul bo'lganligi tasniflarda keltirilgan.

Mustaqillikdan so'ng ushbu masjid XI asrga oid tarixiy yodgorlik sifatida davlat muhofazasiga olindi va hukumatimiz tomonidan ta'mirlanib, serfayz ziyoratgoh holatiga keltirilgan.



7-rasm Xoja Abdu Berun masjidning ustunlari

Xoja Abdu Berun ziyoratgoxi hovlisida xovuzi atrofida mustaqillik yillaridan sung uch tomonlama ayvon barpo qilingan bo'lib ayvonda yogochdan ishlangan ustunlar mavjud.

Ayvonda 17 ustunlar qad rostlab masjid ko'rikga kurk qushib turibdi. Masjidning eski ayvonidda 4 ta yog'och ustunlar mavjud bo'lib bu ustunlar oraliq masofasi 3,30 sm balandligi 3,50sm ustunlar diametiri 83smni tashkil qiladi . Bu masjidda boshqa

masjidlardan farqli ularoq ayvonda qullanilgan ustun ulchamlari xar tamonlama bir xil ekanligini ko'satib turibdi. Ayvonning shiftida xam yoqoch kurilmalar qullanilgan bo'lib ular oddiy ortiqcha bezaklarsiz binoni mustaxkamligini ta'minlab turibdi.



8-rasm Xazrati Xizir masjidi

«Hazrati Xizir» masjidi Samarqand shahrining ziyoratgohlaridan biridir. U Samarqanddagi ilk musulmon masjidi va me'moriy obida sifatida e'tirof etiladi. Masjid Qutayba ibn Muslim tomonidan qurilib, «Hazrati Xizir» nomi bilan atalgan. Ma'lumotlarga ko'ra, VIII asrda otashparastlarning ibodatxonalari buzib tashlangach, shu erdagi tepalikda joylashgan ibodatxona o'miga Qutayba ibn Muslim tomonidan birinchi masjid binosi quriladi. Xoja Doniyor, Qusam ibn Abbos va Hazrati Xizir ziyoratgohlari aslida bitta majmua bo'lgan. Masjidda kiraverishdagi marmar toshda ko'rsatilgan «1854 yil» yozuvi uning Buxoro amiri Amir Muzaffarxon tomonidan tiklanganligiga ishoradir. 1899 yilda masjidning ayvon va darvozaxona qismi qayta qurilgan. Darvoza yuzasiga yozilgan «hijriy 1336 yil» (milodiy 1916-17 yillar) degan yozuv darvozaxona va minoraning qayta tiklangan vaqtini anglatadi.

Fikrimizni xonaqoh mehrobidagi «hijriy 1274 yil» (melodiy 1854 yil), «hijriy 1302 yil» (melodiy 1884 yil) degan yozuvlar isbotlaydi.

Mustaqillik yillarida «Hazrati Xizir» masjidi mamlakat rahbariyatining bevosita rahbarligi ostida bir necha bor mukammal ta'mirlandi, masjid yonida joylashgan Arzis qudug'i qayta tozalanib, qadimiy holiga qaytarildi.

Samarqand shahrida joylashgan eng qadimiy va buyuk tarixga ega masjid Xazrati Xizir masjidi xisoblanadi. Masjid bugungi ko'nga qadar bir necha bor rekonstruksiya qilinib kelinmoqda qadimiy masjid bo'lishga qaramasdan bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib kelingan. 1899-yilda masjida ayvoni qayta quriladi va ayvonda 7 ta yog'och ustunlar qad rostlaydi. Ustunlar mustaqillik yillarida qayta rekonstruksiya qilinadi 6 ta ustun 19-asrga oid ekanligi takidlab o'tilgan 1 ta ustun 2005 yilda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tashabusslari bilan qaytadan o'rnatilgan, sababi o'rtadagi eng yirik yog'och ustun yillar davomida eskirib ichiki tarafidan emrilib boshlaganligi sababli ustun almashtirilgan. Ustunlarning balandligi 5,40sm bo'lib ularning diametrlari xar xil ulchamda maslan eng katta ustunning diametiri 1,70 ,eng kichik ustunning diametiri esa 1,27sm metrdan iborat. SHuningdek ustunlar oraliq masofalari ham har xil ulchamda ekanligiga guvohi bo'ldik. Masjidning shiftiga yog'ochdan ishlarga uymakor naqishlar bejirim bezakla har qanday kishini o'ziga rom qiladi , o'ta nozik did bilan tanlangan ranglar masjidda o'zgacha jilo baxsh etib turibdi.

Xulosa O'rta Osiyoning an'anaviy me'morchiligida asrlar davomida qullanilib kelgan yog'och qurilmalar ,ustunlar ,ayvon shiftlarini izlanishlarimiz natejasida turli xil asrlar turli xil yillarga oid bo'lgan bunday qurilmalar nafaqat masjidlarda balki ayrim turar uylarda ,saroylarda va mahalla masjidlarida shu kabi kuplab tarixiy yodgorliklarda saqlanib qolganligini guvohi bo'ldim .Qolaversa bugungi kunda zamonaviy arxitekturada ham yog'och qurilmalari keng qullanilib kelmoqda .Samarqand shahrida bir qancha tarixiy va zamonaviy masjidlarni ko'rishimiz mumkin biz shulardan ayrimlarini o'rgandik o'rganishlarimiz natejasida masjidlarda qullanilgan yog'och ustunlarning bezaklari ustun ulchamlari undagi naqishlar bazi bir masjidlarda takrorlansa ayrimlarida umiman bir birini takrorlamas bezaklarni uchratishimiz mumkin.Samarqand shahridagi tarixiy masjidlarda mukarnas kallakli ustunlarni ko'prok uchratishimiz mumkin misol uchun Xoja Axror Valiyo majmuasida bir qancha ayvonlarda uchratishimiz mumkin ,Xoja Abudi Berun ziyoratgohida bunday ustunlarni faqatgina yangi qurilgan ayvonida ko'rishimiz mumkin eski ayvonida esa oddiy ustunlar bilan bezatilgan ,aksariyat o'rgangan masjidlarimizning shiftida yog'och qurilmalaridan qullanilgan bejirim bezaklar rang barang uyma naqishlarni uchratishimiz mumkin bo'ladi.Maxdumi A'zam ziyoratgohida ham

qullanilgan ustunlar o'zining ulug'vor balandligi va juda ulkan ustunlari bilan boshqa masjidlar ustunlariga taqqoslab o'rganishimiz mumkin bo'ladi .

ADABIYOTLAR

1. Asqarov Sh.D. Arxitektura Temuridov. - Toshkent, 2018 yil.
2. Asqarov Sh.D. O'zbekiston me'morchiligining genezisi. - Toshkent, 2014 yil.
3. A.S.Uralov, A.Q.Rahimov, V.A.Said. "Arxitektura kompozitsiyasi va dizayn asoslari" Samarqand 2005 yil
4. A.S.Uralov, t Qodirova, "Arxitektura kompozitsiyasi tarixi va usullari"
5. Odilova L.A. landshaft arxitekturasi. taksi. - T.: 2002 yil.
6. M.K.Ahmedov "O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi "Toshkent" O'zbekiston" 1995 y.
7. T.Sh. Mamatmusayev monografiyasi "O'zbekiston tarixiy shaharlarining tipologik rivojlanishi" Toshkent 2019.t.
8. Zubaydullayev, U. Z., & Shodiyeva, S. H. (2023). HISTORICAL MONUMENTS–IN THE EDUCATION OF THE FUTURE YOUNG GENERATION AND THE DEVELOPMENT OF TOURISM. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 825-828
9. Jurayeva, Elvira, Luqmonov Dilshod, and Odina Olimova. "Reviving Ancient Splendor: Graphic Restoration of the Mosque of Odina in Uzbekistan." *Indonesian Journal of Cultural and Community Development* 15.1 (2024): 10-21070.
10. Jurayeva, Elvira, Odilova Fayoz, and Xursanbayeva Baljan. "ARCHITECTURAL FORMATION PROCESSES OF KARSHI FORTRESS AREAS." *International Journal of Education, Social Science & Humanities* 12.3 (2024): 789-797.
11. Elmuradovna, Juraeva Elvira. "The Architecture of Karshi Castle, The Establishment, The Past and the Present." (2023).
12. Zubaydullaev, U. Z. (2023). STUDY OF THE PREPARATION OF TRAINING OF ARCHITECTURE STUDENTS IN EDUCATIONAL PRACTICE IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 818-824.
13. Ziyadullayevich, Z. U. (2023). DECOR IN CONTEMPORARY ARCHITECTURE IN CENTRAL ASIA-TRADITIONS AND INNOVATIONS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 198-204.
14. Зубайдуллаев, У. З., & Тангирова, П. (2018). ПАРКОВЫЕ ЛАНДШАФТЫ И ФОРМИРОВАНИЕ ИХ ВИЗУАЛЬНОЙ СРЕДЫ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-12), 46-49.
15. Zubaydullayev, U. Z., & Asrorov, O. A. (2021). The relevance of creating a system of underground parking in the historical centers of central asian cities on the example of the city of Samarkand. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(7), 145-149.
16. Зубайдуллаев, У. З., Мирзаев, Д. М., & Маматова, С. (2018). ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРНОГО ЛАНДШАФТА В ПРОЦЕССЕ УРБАНИЗАЦИИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-12), 38-41.